

## ONOMASTIKANING AJRALMAS QISMI SANALGAN ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMI TAHLILI ABDULLA QODIRIYNING “O`TGAN KUNLAR” ROMANIDA TALQINIDA

**Nigora Bafoyeva Azimovna**

Buxoro davlat universiteti Lingvistika: o`zbek tili yo`nalishi 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “O`tgan kunlar” romani onomastik birliklar tarkibining ajralmas qismi hisoblangan antroponimlarning leksik qatlami tahlil etilgan.

**Kalit so`zlar:** antroponim, tarixiy shaxs, hukmdorlar, laqablar, turkiy qatlam, forscha so`zlar, arabcha so`zlar, tojikcha so`zlar qatlami.

Bizga ma`lumki, har bir til o`z rivojlanish tarixida turli bosqichlarni bosib o`tadi. Til rivojlanishning mana shu bosqichlarida uning lug`at tarkibi va grammatik tuzilishida ma`lum o`zgarishlar sodir bo`ladi. Bu hol o`z-o`zidan har bir davr tilining o`ziga xos xususiyatlari va normalarini yuzaga keltiradi. Mana shu normalarga ko`ra bir davr adabiy tili ikkinchi davr adabiy tilidan ma`lum xususiyatlariga ko`ra farqlanadi. Til rivojining muayyan davri uchun xos leksika, grammatik vositalar o`sha davr tilining davriy normalaridir [1:9].

Abdulla Qodiriyning “O`tkan kunlar” asari antroponimiyasini lug`aviy qatlamlarga ajratish asar tarkibini boyitgan antroponim, taxallus, laqablar tarixini bilib olishda, o`zbek tilining o`tmishda qanday tillar ta`sirida bo`lganini aniqlashda ham muhim rol o`ynaydi. Asardagi antroponimlarni lug`aviy qatlamlarga ajratish antroponimiyani sistema sifatida o`rganishning muhim usullaridan biridir. “O`tkan kunlar” asari antroponimiyasining ko`p qismini tarixiy shaxslar tashkil etadi. Ularning leksik qatlamlarini o`rganishda tub turkiy antroponimlar yoki asl turkiycha antroponimlar aslida turkiy bo`lmagan antroponimlar, ya`ni o`zlashma antroponimlarga nisbatan tahlil etildi.

Xullas, asarning antroponimik tizimida tarixiy lug`aviy qatlamlarning borligi aniq. Manbimiz hisoblangan asarda tarixiy lug`aviy qatlamlar o`zaro kelib chiqishi, paydo bo`lish davri, o`ziga xos funktsional belgilariga ko`ra farqlanadi. Qatlamlanish o`zbek tilining barcha jabhalarida keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Asardagi tarixiy, real va to`qima antroponimlar ham bundan mustasno emas. Izlanishlarimiz natijasida Abdulla Qodiriyning “O`tgan kunlar” antroponimiyasi tizimida to`rtta antroponimik qatlam yuzaga kelganligini aniqladik: 1. Turkiy antroponimlar qatlami. Bular arabcha-turkiycha; tojikcha-turkiycha; turkiycha, fors-tojikcha; antroponimlarni o`z ichiga oladi. 2. Fors - tojikcha antroponimlar qatlami. Bular arabcha, fors -tojikcha; fors -tojikcha, arabcha; antroponimlarni o`z ichiga oladi. 3. Arabcha antroponimlar qatlami. Bular o`z ichida arabcha - turkiycha; arabcha, fors -tojikcha; fors-tojikcha, arabcha; arabcha, yahudiycha; nomlarga bo`linadi. 4. Bundan tashqari yahudiycha va arabcha -yahudiycha nomlar o`z aksini topgan. Biz ularni quyidagi jadvallar asosida birlashtirib o`rganishga harakat qildik.

### Arabcha

*Akram, Azizbek, Ahmadxon, Aziz, Abdukarim, Azimbek, Farfi, Hojibek,*

*Husaynbek, Homid, Hasanali, Hotam, Komilbek, Murodxon, Muhammadrahim, Mo`minjon, Mutal, Malikboy, Muhammadrajab, Nusratbek, Najmiddin, Olim, Qayum, Qayumjon, Qosim, Qambar, Rahimbek, Rajab, Rahmat, Salimsoqbek, Solihbek, Sayfi, Umarbek, Xoliqbek, Ziyo,*

*G`anibek, Shokirbek, Hanifaniso, Jannat, Karima, Mohira, Oysha, Risolat, Savra, Saodat, Zaynab, Sharofat.*

**Arabcha - turkiycha**

*Alimqul , Karimqul , Karimbek , Musulmonqul , Mallaxon.*

**Turkiycha**

*Esh , Otabek , Sotiboldi , Tosh , O`ttaboy , Kumushbibi , Oybodoq , To`ybeka.*

**Fors –tojikcha**

*Norbo`taxon , Niyoz , Xudoyorxon , Yodgor , Shamshodbek , Gulsinbibi, Oftoboyim , Xushro`ybibi.*

**Arabcha , fors –tojikcha**

*Normuhammad , Pirmat , Pirnazar , Sheralixon.*

**Tojik,turkiy**

*Jonkeldi*

**Fors-tojikcha,arabcha**

*Mirzakarim*

**Turkiycha , fors –tojikcha**

*Xonimbibi*

**Yahudiycha**

*Sulaymon , Yunus , Sorabek.*

**Arabcha ,yahudiycha**

*Yusufbek*

**Asarda turkiy antroponimlar qatlami.**

Turkiy antroponimlar haqida so'z yuritganda, tadqiqotchi G'.Sattorovning o'zbek ismlarining turkiy qatlamiga bag'ishlangan tadqiqoti e'tiborga loyiq. G'.Sattorov "O'zbek ismlarining turkiy qatlami "[2:24]nomli tadqiqotida turkiy ismlar to'g'risida to'xtalib, nomshunos E. Begmatovning quyidagi fikrlarlarini keltiradi: birinchidan, turkiy ismlar turkiy tillarda atoqli otlar, antroponim tizimining qadimiy qatlamini tashkil qiladi. Turkiy ismlarning qadimiyligini ikki ma'noda tushunish mumkin. Birinchidan, nomlar turkiy til leksikasining qadimiy qatlamiga mansub bo'lgan leksemalardan

yasaladigan bo'ldi. Bu so'zlar o'zbek tili leksikasining ilk, qadimiy qatlamiga mansubdir [3:90]. Olim bu o'rinda ismlarning qadim tarixga ega ekanligini bu nomlar uchun asos bo'lgan so'zlarning eng ko'hna ekanligi belgilashini alohida ta'kidlaydi.

Ikkinchida esa, "O'tgan kunlar" romanidagi ismlarning ko'p qismi qadimiy ekanligini inobatga olsak, hozirgi o'zbek tilida qo'llanishda bo'lgan ko'pgina ismlar aslida bu tilda eski davrlardan mavjud bo'lgan ismlardir. Antroponimik tizimda qadimiy nomlar, ismlar zahirasiga arxisistemalilik xususiyatini beradi, antroponimik zahiraning tarixiy va an'anaviyligini belgilaydi.

Asardagi turkiy, jumladan, o'zbek antroponimiyasining qadimiy namunalari ikki manbada saqlanib qolgan nomlar: 1) tarixiy yozma yodgorliklar tilidagi

2) hozirgi davr antroponimik zahirada mavjud bo'lgan nomlar. Birinchi manbaga turli tarixiy, badiiy didaktik xarakterdagi yozma asarlar, shuningdek, arxeologik, xonlar saroyining arxiv materiallari va boshqalar kiradi. Bu antroponimlar haqidagi ba'zi ma'lumotlarni Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" asarida ilova sifatida varog' ostida keltirib o'tgan. Quyidagi ma'lumotni muallif bevosita o'zi keltirib o'tadi:

*Bu bo'zaxonalar Mallaxonning 1273-nchi yil Toshkand hokimligi vaqtida barham berildi (mual.) [36-bet]*

Shu bilan birga asarda bir qator asli turkiy bo'lgan nomlar ham uchraydi. Asarda keltirilgan turkiy antroponimlar leksik qatlamini quyidagicha Bo'lish mumkin:

**Turkiycha:** *Esh, Tosh, Sotiboldi, Otabek, O'ttaboy, Kumushbibi, Oybodoq, To'ybeka.*

*Esh aka bilan Tosh akaning uylari orqasidan teshilib mollari o'g'irlana*

*beradir, peshtoqdan qopqa bo'g'ilib tashlanmoq uchun fohishalar ham yetishib turadirlar. [122-bet]*

*Pirnazar jallodning yonida Otabek va Sotiboldi akaning qatorida Yusufbek hoji edilar. [183-bet]*

*Oybodoq tashqarini yig'ishtirib kirdi. [178-bet]*

*Kumushbibi chirt etib yuzini To'ybekadan o'girdi. [16-bet]*

Asar bosh qahramonlari hisoblanmish Otabek va Kumush ismlarining asl turkiy ismlar sirasiga kirishi ham bejiz emas nazarimizda. Tohir Malik: "Bu romanning poydevori Otabek va Kumushning sof va buyuk muhabbatidir. Men ularning muhabbatini buyuk tog'lardagi ulkan aysberglarga o'xshataman. Ular hech qachon erimaydi, hech qachon ularga putur yetmaydi" – deya aytib o'tadi "O'tkan kunlar" haqida yozgan maqolasida. Bizning nazarimizda shu aysberglarga antroponimlar ham o'zgacha jilo berib turibdi. Otabek nega "Ota", "bek", Kumush nega Kumush? Bu o'rinda Zaynab boshqa leksik qatlamga tegishliligini ham inobatga olsak, bu uch sevgi uchburchagi ostida Vatan taqdiri yotadi, nazarimizda.

*Otabek zo'rg'agina o'rnidan turdi... Ul uzog'lashqandan keyin Kumush sekingina yuzidan ko'rpani oldi va mudroq ko'zlari bilan Otabekka kulimsirab qaradi. Otabek havlidag'i oyog' tovshini eshitib, tokchadag'i sham'lardan uchtasini o'chirg'an edi, darichadan Zaynab ko'rindi: «Hali ham shu yerda ekansiz, men sizni tashqarig'a chiqg'ansiz, deb o'ylabman...» dedi. Otabek javob bermay qolg'an sham'larni o'chirdi. Zaynabning «hali ham shu yerda...» so'zi bilan Kumushning ko'zi uyqudan ochilib ketkan edi... Otabek eshikni yopib chiqdi.*

Asarning ushbu parchasida faqat shaxslar harakatda. Tohir Malik ta'biri bilan aytganda Otabek – yurtning kelajagi, lekin yurtning kelajagini yorug'likda ko'rolmadi. Kumush Vatanning kelajagi yorug'ligining ishorasi, u Kumushning jilosi kabi Otabekni vatan fidoyisiga aylantiradi. Zaynab bu o'rinda sergaklikka da'vat etguvchi mayoq. Yuqorida aytib o'tganimizdek ismlar har doim so'zlaydi, so'zlamaydigan ismlar yo'q. Muallif ham, kitobxon ham asarni o'qish jarayonida asardagi

shaxs nomlaridan sevgi, o'zbekona odatlar, vatan taqdiri kabi masalalarning syujetda harakatlanayotganini sezadi.

“O'tgan kunlar” asaridan to'plangan antroponimlarning turkiy qatlamida turkiy so'zlar bilan birgalikda arabcha va fors-tojik tilidagi so'zlar ham qo'shilib keladi. Ularning aksariyati mahalliy va tarixiy shaxslarning arabcha yoki forsha-tojikcha nomlaridir. Bu turdagi nomlarni quyidagicha guruhlariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

**a) arabcha-turkiycha:** *Alimqul*, *Karimqul*, *Karimbek*, *Musulmonqul*, *Mallaxon*; **Alimqul** (1833—1865) Andijon atrofidagi qirg'iz-qipchoq qabilalaridan birida tug'ilgan. Qo'qon xoni **Muhammad Sulton Saidning** otalig'i (murabbiysi va maslakchisi). Ruslarga qarshi kurashgan lashkarboshilardan biri. Toshkentning Sho'rtepa mavze'ida bo'lgan jangda halok bo'lib, Shayxantohur qabristoniga dafn qilingan. [120-bet]

*Yig'inda Muhammadniyoz qushbegi, Qosim mingboshi, Qambar sharbatdor, Karimqul ponsadlardan tortib Toshkandning yetuklik ashrof va a'yonidan o'n beshlab odam bor edi.* [157 -bet]

*Mohirabonu-dan ikki o'g'ul va ikki qiz dunyog'a kelib, to'ng'uchi Azimbek, undan keyingisi Xushro'y (yoshlig'ida Xushro'y o'rniga Xushra der edilar), uchunchisi Karimbek va to'rtinchisi bizning Zaynab edi.* [206-bet]

**Musulmonqul** bu ishlarni bir yaxshi maqsadni kuzatib qilg'anda, zolimlarni o'rtadan ko'tarib, yurtka osoyish berganda, unga kim nima deya olur edi? [8-bet]

**b) tojikcha–turkiycha:** *Jonkeldi*;

*Jonkeldi o'lib turg'an ekan, quloq qoqmay xo'b, dedi.* [138-bet]

**d) turkiycha, fors–tojikcha:** *Xonimbibi*.

*Xonimbibi qizlarga qistatib o'lturmay o'rnidan sakrab turdi-da, o'ynab ham ketdi.* [30-bet]

Asar leksik qatlami rangba – rang bo'lib, bu asarda aks etayotgan zamon, qahramon xarakterini ochib berishda salmoqli rol o'ynagan.

#### Adabiyotlar:

1. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985. –Б. 9.
2. Сатторов Ф. " Ўзбек исмларининг туркий қатлами. Номзодлик диссертацияси . –Тошкент, 1990. –Б. 24
3. Бегматов Э.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985. – Б.90.
4. Абдулла Қодирийнинг «Ўтган кунлар» романи. «Адабий барқарор асарлар туркуми». –Т., 2019. –Б.1-448-betlar.
5. M.Safarova “Toponyms Formed On The Basis Of Nation Names” International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.
6. M.Safarova The Concept of Totemism and Ethnonym. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and..., 2022. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=xE0DgREAAAJ&citation\\_for\\_view=xE0DgREAAAJ:u-x6o8ySG0sC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xE0DgREAAAJ&citation_for_view=xE0DgREAAAJ:u-x6o8ySG0sC)
7. [Manba <https://tafakkur.net/otkan-kunlar/kumushning-soz-oyuni.uzb>]